

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA IJTIMOIIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

*Orziqulov Xusniddin  
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Maqolada oliy ta'lim muassasasi talabalarining innovatsion texnologiyalarni amaliy faoliyatda qo'llay olish muammosi aks ettirilgan. Hozirgi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil etish masalalari aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** Muammoli ta'lim, ijtimoiy kompetensiya, muammoli vaziyat, o'quv jarayoni, muammoli va interfaol, badiiy ifodaviy, jumboqli.

**Аннотация:** В статье отражена проблема использования студентами высших учебных заведений инновационных технологий в практической деятельности. В настоящее время отражены вопросы организации занятий с использованием проблемных образовательных технологий в развитии социально-педагогической компетентности будущих учителей начальных классов.

**Ключевые слова:** Проблемное образование, социальная компетентность, проблемная ситуация, образовательный процесс, проблемно-интерактивный, художественно-выразительный, загадочный.

**Abstract:** The article reflects the problem of students of higher education institutions using innovative technologies in practical activities. Currently, issues of organizing classes using problematic educational technologies in the development of social-edagogical competence of future primary school teachers are reflected.

**Key words:** Problem-based education, social competence, problem-based situation, educational process, problem-based and interactive, artistically expressive, enigmatic.

Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil etish dolzarbligi shundan iboratki, davlat ta'lim standartlarining yangi avlodiga muvofiq, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda materialni interaktiv taqdim etish ulushi keskin oshib bormoqda. O'zbekiston oliy ta'limi sohasidagi tub o'zgarishlar va rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olgan holda Yevropa va xalqaro ta'lim hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq. Ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlari Boloniya deklaratsiyasi jarayoni bilan bog'liq hujjatlarda, "2030 yilgacha O'zbekiston ta'limini modernizatsiyalash konsepsiyasi" da o'z aksini topgan. Hozirgi kunda O'zbekiston jamiyati Boloniya shartnomasiga muvofiq fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning innovatsion modeliga o'tmoqda[6]. Shu bilan birga, axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari va elektronika yo'nalishi eng yuqori o'ringa ega bo'lishi prioritet sifatida tan olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Muhtaram Prezidentimiz ta'lim va tarbiyaning hayotiy zarurati va ta'lim tizimida innovatsion rivojlanishni yo'lga qo'yish dolzarbligi haqida gapirar ekanlar: "Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar


xalqning vakillarimiz. Men ham o‘qituvchi, muallim deganda o‘zim uchun eng aziz va hurmatli bo‘lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta’lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan. Bugungi kunda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko‘makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir.” deb alohida ta’kidlab o‘tgan edi[1].

Olimlarning yondashuvlari asosida pedagogik nuqtai nazardan faol o‘qitish metodlarini talabalar bilish faoliyatini faollashtirish vositasi sifatida uch guruhga bo‘linadi: dasturli, muammoli va interfaol (kommunikativ o‘qitish).

Ma’lumki, mashg‘ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat bo‘lib, uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Muammoli ta’lim konsepsiyasining asosiy tushunchalari «muammoli vaziyat» «muammo», «muammoni topish» kabilar hisoblanadi. Muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko‘rinishi hisoblanib, o‘zida sub’yektning aniq yoki qisman tushunib yetilgan muammoni ifodalaydi, uni bartaraf etish yangi bilimlar usullar va harakat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishni taqozo etadi.


Bu turdagi ta’limning ilk g‘oyalari amerikalik psixolog va pedagog J.Dyui (1859-1952 yy.) tomonidan asoslangan. U 1894 yilda Chikagoda o‘qitish o‘quv rejasi bo‘yicha emas, balki, o‘yin va mehnat asosida olib boriladigan tajriba maktabini tashkil etgan.

J.Dyui muammoli ta’lim asosi sifatida quyidagi yo‘nalishlarni belgilagan (1-rasm):



1-rasm. Muammoli ta’lim yo‘nalishlari (J.Dyui).

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishda muammoli ta’limning bir necha turlari mavjud. Masalan, olimlar o‘zishlarida muammoli ta’limning quyidagi turlari borligiga urg‘u beradi(2-rasm):



## 2-rasm. Muammoli ta’limning turlari

Muammoli ta’limning asosini muammo (yun. “to’siq”, “qiyinchilik”) yoki muammoli vaziyat tashkil etib, muammoli ta’lim texnologiyalari ularning yechimini topishga xizmat qiladi. Ko‘p holatlarda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishda muammo va muammoli vaziyat sinonimlardek qabul qilinadi. Aslida esa ular bir-biridan farq qiladi. Muammo (yunon. “to’siq”, “qiyinchilik”, arab. “jumboqli”, “sirli”, “tushunilishi qiyin”) – hal qilinishi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masala.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev M.Sh. Ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidan. – T.: 2020 yil, 30 oktyabr.

2. Симонова Г.И. Педагогическое сопровождение социальной адаптации учащихся: монография. – Киров, 2005.

3. Концепция ведущих ученых института педагогики и психологии ЯПТУ под ред. М.И. Рожкова. – Ярославль, 2006.

4. Musurmanova O. // Uzluksiz ta’lim tizimida o‘qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari: Resp. ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

5. Муслимов Н., Усмонбоева М., Сайфуров Д., Тўраев А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: “Sano-standart”, 2019.

6. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)

7. <http://www.philosophy.ru/library/kamensky/metodol/method3.htm>